



TEZKOR QIDIRUV XODIMLARI FAOLIYATIDAGI SO'ROQ
JARAYONIDA MANIPULYATIV TA'SIR
MEXANIZMLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Mamayunosov Zuxriddin Habibullo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona mintaqaviy o'quv markazi
"Jismoniy va jangovar tayyorgarlik" sikli o'qituvchisi, leytenant.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20195672>

ARTICLE INFO

ABSTRACT

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil
Ma'qullandi: 5-may 2026 yil
Nashr qilindi: 15-may 2026 yil

KEY WORDS

tezkor qidiruv faoliyati, so'roq jarayoni, manipulyativ ta'sir, psixologik bosim, kommunikativ ta'sir, suggestivlik, kognitiv nazorat, emotsional barqarorlik, forensik psixologiya, raqamli kommunikatsiya, dezinformatsiya, psixologik rezistentlik, axborot xavfsizligi, tana tili, ijtimoiy ta'sir.

mazkur maqolada tezkor qidiruv xodimlari faoliyatidagi so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir mexanizmlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, zamonaviy raqamli kommunikatsiyalar, axborot oqimining ortishi, dezinformatsiya va psixologik bosim omillarining so'roq jarayoniga ta'siri, jahon, MDH va O'zbekiston psixologiya maktabi olimlarining manipulyativ kommunikatsiya, suggestivlik, kognitiv nazorat hamda psixologik ta'sirga oid nazariy qarashlari, so'roq jarayonida kommunikativ ustunlik, emotsional bosim, ishonchni shakllantirish va yashirin psixologik boshqaruv mexanizmlarining namoyon bo'lish shakllari, raqamli xavfsizlikni ta'minlash hamda tezkor qidiruv xodimlarining psixologik tayyorgarligi, tezkor qidiruv faoliyatida manipulyativ ta'sirlarni aniqlash, ularga qarshi psixologik rezistentlikni shakllantirish va so'roq jarayonining obyektivligini ta'minlash haqida so'z yuritilgan.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor axborot almashinuvi vositalarining kengayishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, dezinformatsiya, psixologik bosim va manipulyativ kommunikatsiya shakllarining ortishi tezkor qidiruv xodimlari faoliyatida so'roq jarayonini yanada murakkab psixologik jarayonga aylantirmoqda. Shu sababli so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir mexanizmlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va ularga qarshi psixologik barqarorlikni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [1, 5-modda].

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunida tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar ustuvorligi, oshkora va nooshkora usullar uyg'unligi belgilangan [1, 5-modda]. Bu talablar so'roq jarayonida psixologik ta'sir vositalaridan foydalanishda ham qonuniylik, etik me'yorlar va inson sha'nini hurmat qilish mezonlari ustuvor bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son Farmonida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, jinoyatlarni tez va to'liq aniqlash hamda qidiruv ishlarini samarali tashkil etish vazifalari belgilangan [2, 2-band]. Mazkur hujjat tezkor qidiruv

xodimlaridan nafaqat huquqiy bilim, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlik, kommunikativ madaniyat va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini talab etadi.

So'roq jarayoni tezkor qidiruv faoliyatida axborot olish, shaxsning pozitsiyasini aniqlash, yashirin motivlarini tushunish va vaziyatga psixologik baho berish bilan bog'liq murakkab kasbiy faoliyatdir. Ushbu jarayonda noto'g'ri savol berish, ortiqcha emotsional bosim o'tkazish, suhbatdoshning psixologik holatini hisobga olmaslik yoki manipulyativ usullardan noo'rin foydalanish so'roq natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois tezkor qidiruv xodimlari so'roq davomida kommunikativ ta'sir, psixologik bosim, ishonch hosil qilish va axborotni tahlil qilish mexanizmlarini chuqur bilishi zarur.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da inson qadriini yuksaltirish, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat organlarining xalqparvarlik tamoyillari asosida faoliyat yuritishi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [3, 1-yo'nalish]. Bu yondashuv tezkor qidiruv faoliyatida ham inson huquqlarini hurmat qilish, fuqarolar bilan muloqotda qonuniylik va adolat mezonlariga qat'iy rioya etishni talab qiladi. Demak, so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir mexanizmlarini o'rganish faqat psixologik emas, balki huquqiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida davlat boshqaruvi, ijtimoiy soha va xavfsizlik tizimlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron hukumat, raqamli infratuzilma va axborot xavfsizligini rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan [4, 1-band]. Raqamli muhitning kengayishi esa tezkor qidiruv faoliyatida yangi psixologik xavflarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan yolg'on axborotlar, feyk xabarlar, axborot manipulyatsiyasi va shaxs ongiga yashirin ta'sir ko'rsatish holatlari so'roq jarayonida olinadigan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligiga ta'sir qilishi mumkin.

Bugungi O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini insonparvarlik, ochiqlik, qonuniylik va raqamli xavfsizlik talablari asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda tezkor qidiruv xodimlarining psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, so'roq jarayonida manipulyativ ta'sirlarni aniqlash, shaxsning emotsional holatini baholash va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dolzarbli. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, tezkor qidiruv xodimlari faoliyatidagi so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir mexanizmlarini o'rganish bugungi O'zbekistonda olib borilayotgan huquqiy islohotlar, raqamli xavfsizlik siyosati va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ushbu mavzuni ilmiy o'rganish tezkor qidiruv faoliyatida qonuniylikni mustahkamlash, so'roq jarayonining psixologik samaradorligini oshirish va manipulyativ ta'sirlarning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar tezkor qidiruv xodimlari faoliyatidagi so'roq jarayoni oddiy savol-javob shakli emas, balki murakkab psixologik ta'sir, axborot almashinuvi va shaxslararo boshqaruv tizimi ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy raqamli muhitda axborot oqimining ortishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan noto'g'ri ma'lumotlar, emotsional bosim va kommunikativ manipulyatsiya usullarining kuchayishi so'roq jarayonining psixologik mazmunini yanada murakkablashtirmoqda [6, 112-b.]. Shu bois manipulyativ ta'sir mexanizmlarini tahlil qilishda ijtimoiy-psixologik, kognitiv, forensik va milliy-huquqiy yondashuvlarni uyg'un holda o'rganish zarur.

Jahon psixologiya maktabida manipulyativ ta'sir shaxs qarorlariga yashirin yo'l bilan ta'sir ko'rsatadigan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinadi. R.Cialdini tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ta'sir tamoyillariga ko'ra, inson xulq-atvori ko'pincha avtoritet, ijtimoiy tasdiq, o'zaro majburiyat, tanqislik va emotsional yaqinlik kabi omillar orqali boshqariladi [7, 47-b.]. Tezkor qidiruv faoliyatidagi so'roq jarayonida ham aynan shu

mexanizmlar turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: suhbatdoshda ishonch uyg'otish, uni ma'lum javobga yo'naltirish, ichki ziddiyatini kuchaytirish yoki mavjud axborotni tanlab taqdim etish orqali uning qaroriga ta'sir o'tkaziladi.

D.Kahnemanning "ikki tizimli tafakkur" modeli mazkur jarayonni yanada chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Olimning yondashuviga ko'ra, inson qaror qabul qilishda tezkor, intuitiv va emotsional tafakkur hamda sekin, mantiqiy va tahliliy tafakkur tizimlariga tayanadi [8, 35-b.]. So'roq jarayonida stress, vaqt bosimi, xavotir va noaniqlik kuchayganda shaxs ko'proq intuitiv qaror qabul qilishga moyil bo'ladi. Bu esa manipulyativ ta'sir samaradorligini oshiradi, chunki bunday holatda tanqidiy tahlil susayadi, emotsional reaksiya esa kuchayadi [8, 32-b.].

Forensik psixologiya tadqiqotlari ham so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir xavfi yuqori ekanligini ko'rsatadi. A.Vrij yolg'onni aniqlashda faqat biror noverbal belgiga tayanish yetarli emasligini, verbal, noverbal va kognitiv yuklama indikatorlarini kompleks tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [9, 24-b.]. Bu tezkor qidiruv xodimi uchun muhim xulosa beradi: so'roq jarayonida suhbatdoshning tana tili, nutq sur'ati, pauzalari, izohlaridagi mantiqiy izchillik va emotsional o'zgarishlar birgalikda baholanishi lozim. Aks holda xodim noto'g'ri psixologik xulosaga kelishi yoki manipulyativ javoblarga ishonib qolishi mumkin.

G.Gudjonsson tadqiqotlarida esa so'roq jarayonida suggestivlik va psixologik bosim noto'g'ri e'tiroflar shakllanishiga sabab bo'lishi mumkinligi asoslangan [10, 215-b.]. Bu holat tezkor qidiruv amaliyoti uchun jiddiy ogohlantirishdir: haddan tashqari bosim, yetaklovchi savollar, ayblovchi ohang yoki shaxsning zaif emotsional holatidan foydalanish so'roq natijalarining ishonchliligini pasaytiradi. Demak, manipulyativ ta'sir mexanizmlarini o'rganish faqat samarali axborot olish uchun emas, balki qonuniylik, obyektivlik va inson huquqlarini ta'minlash uchun ham zarur.

MDH psixologiya maktabida E.L.Dotsenko manipulyatsiyani shaxs ongiga bevosita emas, balki bilvosita, yashirin va motivatsion ta'sir o'tkazish jarayoni sifatida izohlaydi [12, 43-b.]. Ushbu yondashuv tezkor qidiruv faoliyatidagi so'roq jarayoniga to'liq mos keladi, chunki so'roq davomida shaxs faqat ochiq savollarga javob bermaydi, balki muloqotdagi ohang, pauza, savol tuzilishi, ishonch muhiti va psixologik bosim orqali ham boshqarilishi mumkin. Shu jihatdan manipulyatsiya ko'pincha ochiq majburlash emas, balki shaxsning ichki qarorini "o'z tanlovi" sifatida shakllantirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

S.G.Kara-Murza axborot orqali ongni boshqarish jarayonini tahlil qilar ekan, takroriy axborot, emotsional obrazlar, qo'rquv, ijtimoiy stereotiplar va "ko'pchilik fikri" effektining shaxs ongiga kuchli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [11, 65-b.]. Raqamli muhitda bu mexanizmlar yanada kuchayadi: feyk xabarlar, ijtimoiy tarmoqdagi bosim, algoritmik tavsiyalar va ommaviy emotsional reaksiya shaxsning voqeaga nisbatan munosabatini oldindan shakllantirib qo'yishi mumkin [11, 71-b.]. So'roq jarayonida bunday oldindan shakllangan tasavvurlar suhbatdoshning javoblariga, o'zini himoya qilish usullariga va ma'lumotni yashirish strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Neyropsixologik nuqtai nazardan A.R.Luriya tadqiqotlari frontal korteksning tanqidiy nazorat, rejalashtirish va xatti-harakatni boshqarishdagi rolini ochib beradi [9, 132-b.]. So'roq jarayonida kuchli stress, qo'rquv yoki emotsional zo'riqish frontal nazoratni zaiflashtirib, shaxsni impulsiv javob berishga, tafsilotlarni chalkashtirishga yoki tashqi bosimga tezroq berilishga olib kelishi mumkin. Bu holat manipulyativ ta'sirlarning ayniqsa emotsional bosim, aybdorlik hissi, qo'rquv uyg'otish va noaniqlikdan foydalanish shakllarida samarali bo'lishini tushuntiradi.

O'zbekiston psixologiya maktabi doirasida shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, muloqot madaniyati va psixologik barqarorligi masalalari V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, E.G.G'oziyev kabi olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu yondashuvlarda shaxsning kommunikativ kompetentligi, o'zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy vaziyatni baholash malakasi va emotsional barqarorligi kasbiy faoliyat samaradorligining muhim sharti sifatida talqin qilinadi [14, 84-b.].

Tezkor qidiruv xodimlari uchun bu jihatlar ayniqsa muhimdir, chunki so'roq jarayonida xodim nafaqat savol beruvchi, balki vaziyatni psixologik boshqaruvchi, suhbatdoshning ichki holatini kuzatuvchi va axborot ishonchliligini baholovchi mutaxassis sifatida harakat qiladi.

Bugungi O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini modernizatsiya qilish, raqamli xavfsizlikni kuchaytirish, inson huquqlarini ta'minlash va professional kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da inson qadrini yuksaltirish, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatini xalqparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [15, 15-b.]. Bu esa tezkor qidiruv faoliyatida ham so'roq jarayonining qonuniy, adolatli va psixologik jihatdan asoslangan tarzda olib borilishini talab qiladi.

Xulosa. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida davlat boshqaruvi va xavfsizlik tizimlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, axborot xavfsizligini ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirish muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan [5, 9-b.]. Mazkur strategik vazifalar tezkor qidiruv xodimlaridan raqamli axborot bilan ishlash, feyk ma'lumotlarni aniqlash, manipulyativ kommunikatsiyani tahlil qilish va so'roq jarayonida psixologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha maxsus kompetensiyalarni talab etadi.

Umuman olganda, jahon, MDH va O'zbekiston olimlari qarashlari hamda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar shuni ko'rsatadiki, tezkor qidiruv xodimlari faoliyatidagi so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir mexanizmlarini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Ushbu jarayonda ijtimoiy ta'sir, kognitiv nazorat, emotsional barqarorlik, suggestivlik, kommunikativ kompetentlik va raqamli xavfsizlik omillari birgalikda hisobga olinishi zarur. Shu asosda tezkor qidiruv xodimlari uchun manipulyativ ta'sirlarni aniqlash, ularga qarshi psixologik rezistentlikni shakllantirish va so'roq jarayonining obyektivligini ta'minlashga qaratilgan maxsus treninglar hamda diagnostik dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar bibliografiyasi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-344-son, 2012-yil 25-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-son Farmoni. 2017-yil 10-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida.
7. Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: АСТ, 2021. – 784 с.
8. Cialdini R. Influence: Science and Practice. – Boston: Pearson Education, 2021. – 336 p.
9. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2021. – 499 p.
10. Vrij A. Detecting Lies and Deceit: Pitfalls and Opportunities. – London: Wiley, 2022. – 432 p.
11. Gudjonsson G. H. The Psychology of Interrogations and Confessions. – Chichester: Wiley, 2018. – 496 p.

12. Кара-Мурза С. Г. Манипуляция сознанием. – Москва: Академический проект, 2020. – 736 с.
13. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – Санкт-Петербург: Речь, 2020. – 304 с.
14. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2019. – 384 с.
15. Каримова В. М., Баротов Ш. Р., Ғозиев Э. Ғ. Шахс психологияси ва ижтимоий хулқ-атвор масалалари. – Тошкент: Фан, 2021. – 320 б.

